



UDK:

ORCID: 0009-0005-4904-8384

ABDULLA ORIPOV IJODIDA MUMTOZ SHE‘RIYAT OHANGLARI

*Ulug‘bek Sanaqulov – Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali v.b dotsenti, PhD
ulugbeksanakulov84@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu ilmiy maqola o‘zbek she‘riyatining yorqin siymosi Abdulla Oripov ijodiga bag‘ishlanadi. Unda o‘zbek she‘riyatini an‘anaviy va zamonaviy mavzudagi she‘rlar bilan boyitganligi xususida so‘z yuritiladi. Shoirning lirikadagi badiiy mahorati, mumtoz she‘riyat an‘analari ta‘sirida yaratgan she‘rlari tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy ijod, muhabbat lirikasi, g‘azalnavislik, mumtoz she‘riyat, an‘ana va novatorlik, muxammas, to‘rtlik, muvashshah.

Annotation This scientific article is devoted to the work of Abdulla Oripov, a bright figure of Uzbek poetry. It discusses his enrichment of Uzbek poetry with poems on traditional and modern themes. The poet's artistic skills in lyrics, the poems he created under the influence of classical poetry traditions are analyzed.

Keywords: artistic creativity, love lyrics, ghazal writing, classical poetry, tradition and innovation, muhammas, muvashshah.

Аннотация Данная научная статья посвящена творчеству Абдуллы Орипова, видного деятеля узбекской поэзии. В статье рассматривается обогащение узбекской поэзии стихами на традиционные и современные темы. Анализируется художественное мастерство поэта в лирике и стихотворениях, созданных им под влиянием классических поэтических традиций.

Ключевые слова: художественное творчество, любовная лирика, газельписание, классическая поэзия, традиции и новаторство, мухаммасы, четверостишия, мувашшах.

KIRISH. XX asr o‘zbek she‘riyatining zabardast vakili Abdulla Oripov mumtoz va zamonaviy lirikada birdek ijod qilgan iste‘dodli shoirlarimizdan edi. Abdulla Oripov she‘riyatini o‘tmish va kelajakni bo‘g‘lab turgan ko‘prikka qiyoslash mumkin. “She‘riyatni sehr va joziba hamda yuksak fikrlarning go‘zal bir omuxnasi” hisoblagan shoir bezavol mumtoz she‘riyatimizdan yaxshi xabardor bo‘lgan va uning abadiyligini, boqiyiligini, asrlar o‘tsa-da ma‘naviy quvvatini yo‘qotmasligini anglagan va teran his etgan. Shoir ijodining dastlabki

davrida aksariyat shoirlar kabi muhabbat mavzusiga murojaat qiladi. Bu borada shoir o‘tmish shoirlari izidan borib, ana’anaviy g‘azalchilikka qo‘l uradi. Aytish mumkinki, shoir yaratgan ishqiy mazmundagi g‘azallarning lirik qahramoni o‘tmish g‘azallaridan farq qiladi. Agar o‘tmish shoirlar g‘azallarida oshiq nifaol, tushkun holda gavdalansa, Abdulla Oripovning lirik qahramoni XX asr sharoitida ancha ijtimoiylashgan, faollashgan ko‘rinishda talqin etiladi:

*Bu ishq sirrin kitob etting, kitobing ichra men borman,
O‘qurman deb xitob etting, xitobing ichra men borman.
Yarashgaydir, ajab, senga ajab nozu tamannolar,
Keturman, deb shitob etding, shitobing ichra men borman... [3.60]*

Ma’lum bo‘lishicha, shoirning lirik qahramoni ishq ichra bir soniya ham ma’shuqasi yonidan jilmaydi. U doimo yor nigohidan, xotirasidan qolishni sira istamaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Abdulla Oripov ijodiga nazar tashlasak, nafaqat bir-biridan badiiy jihatdan, balki ma’no va uslub jihati bilan ham ajralib turadigan g‘azallarni uchratamiz. Shoir g‘azalchilikda o‘ziga xos yo‘l tutib, o‘tmish shoirlari an’anasini davom ettiradi, ularda yor go‘zalligining telbasiga aylangan oshiq ruhiy-holatining eng yuqori pardalari tasvirlanadi:

*Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun... [3.48]*

Yuqorida ta’kidlanganidek, shoirning lirik qahramoni o‘tmish g‘azallaridagi oshiq emas. U ishq sahrosida tanho qolgan, chunki sevgan yori uni tark etgan. U ishqsiz qolganidan shunday oh tortganki, uning taftidan sahro yonmoqda. Lirik qahramon o‘z ahvoliga qarab Qaysga rahmi keladi, bu dashtga zinhor chiqmaslikka da’vat etadi. Chunki oshiq dardining tafti nihoyat darajada yuqori, hatto Qays ham Layli uchun bunchalik oh tortmagan.

Abdulla Oripov o‘z g‘azallarida oshiq va ma’shuqaning nozik his-kechinmalari tasvirida turli ana’anaviy timsollarni misralarga olib kirishi bilan birga, ularda original tashbehlar ham qo‘llaydi:

*Yolborib gullar dedi: - Kirma bu boqqa, ey yigit,
Bunga kirganlar kirurlar sochini qor etgali.
Ne ajab, maydon topilsa men uchun ham deb edim,
O‘zga bir dildor bilan aruzda bozor etgali. [4]*

Abdulla Oripov mumtoz lirika ichida she’riyat yaratgan ijodkor. Shoir ayniqsa, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiydan katta tajriba orttirganligini eslaydi: “Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she’rni sehrli tayoqchaday o‘ynatishni o‘rgandim. [6.157] Shu sababdan shoir ijodida Alisher Navoiy g‘azallariga hamohanglik ko‘proq namoyon bo‘ladi. Misol uchun uning “Kelmading” radifli g‘azali Navoiyning mashhur “Kelmadi” g‘azali ta’sirida yozilgan deyish mumkin:

*Biz tomonga, ey nigora, ne balo, bir kelmading,
Ko‘zlarimga bo‘ldi dunyo tim qaro, bir kelmading.
Kipriging o‘q, tiyg‘i lashkar, shul sabab sadpora dil,*

Ustiga-ustak yaraldi ming yaro, bir kelmading. [5.103]

Ko‘rinadiki, she‘rda o‘zgacha bir lirik manzara: oshiq yorining kelmaganidan beixtiyor taajjubda, uning kelmasligidan oshiq ko‘ziga dunyo go‘yo qorong‘ulashib ketadi. Lirik qahramon qalbining sadpora bo‘lishi, ma‘shuqa kipriklarining o‘qdek tizilib, lashkar misoli hujum qilganidan. Bu uning yarasini badtar jarohatlaydi, oshiq mana shunday holatda o‘z yoridan marhamat kutadi.

Abdulla Oripov Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kirgan “Jamoateki, junun ma’nini manga qilasiz, Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz” matla’li g‘azaliga o‘zining quyidagi muxammasini bog‘lagan:

*Huzuri ishq Sizga-yu, tavqini kimga ilasiz,
Malomat xanjari birla doim yurakni tilasiz.
Nechuk g‘am ustiga g‘amdur, ahli g‘animim ila Siz
Jamoateki, junun ma’nini manga qilasiz
Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz.*

*Buyuk dard yetdi Majnung‘a, olomon, yig‘lang,
Ketur armonda ko‘ngil, man notavon, yig‘lang,
To‘kulsin ashk kabi yulduz, osmon, yig‘lang,
Firoq kunidir, ey ko‘zlar, emdi qon yig‘lang,
Bilurmi sizki, bu kun ne kishidin ayrilasiz... [5.99]*

“Abdulla Oripovning g‘azallarida Alisher Navoiy g‘azalnavisligi yutuqlarining poetik sintezlashgani kuzatiladi. Garchi shoir ijodiy merosida g‘azallar ko‘p bo‘lmasa ham, ularda navoiyona falsafiy teranlik, buyuk bobokalonimiz she‘riyatidagiga o‘xshash betakror badiiyat va sirli ruh uyg‘unligini kuzatish mumkin” [1.279]– deydi olimalarimizdan biri.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bundan tashqari Abdulla Oripov lirikasida Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat kabi mumtoz shoirlar ijodiga hamohanglik, ma‘naviy izdoshlikni ham sezrish mumkin. Shoir yaratgan g‘azal, muxammas, masnaviy va to‘rtliklarda adabiy an‘analarning davom etganligi namoyon bo‘ladi. Nazarimizda, Abdulla Oripov ijodini o‘tmish davri adabiyoti, xususan, she‘riyatidan ayro bo‘lmagan holda umrining so‘ngigacha davom ettirib borgan edi. U ijodining dastlabki damlarida mumtoz she‘riyatning turli janrlarida o‘z mahoratini sinab ko‘rishdan boshlagan bo‘lsa, keyinchalik ijodiga mumtoz lirikaning ruhini, xalqchilligi singdiradi:

*Senga she‘rim yoqmas, kimimdir yoqmas,
Ayt, ne gunohim bor butun bir xalqning?
Bilib qo‘y, bu daryo teskari oqmas,
Senga jazosi bor yaratgan Haqning! [7.14]*

Bu to‘rtlikda Zahiriddin Muhammad Boburning “Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir” ruboiysiga mazmunan hamohanglik seziladi.

Abdulla Oripov XX asrning 60-70 yillarida tuyg‘ulari quruqlashib borayotgan adabiyotimizga inson qalbini samimiy tuyg‘ular bilan boyitadigan, ko‘ngil dardlarini ochiq-oydin yoritadigan, ruhiy manzaralarga boy mumtoz lirika namunalarini olib kirdi. Uning quyidagi g‘azali benihoya lirizmga boy, sof samimiy ishq tuyg‘ularni tarannum etishi bilan ko‘pchilikning qalbidan joy olgan:

*Yaxshi qol ey dilbarim dilda qadar ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar ketmoqdaman.*

Atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov Abdulla Oripovning “Adolat ko‘zgusi” nomli to‘plamiga kirgan essesda, shoirning unga atab muvashshah yozganini ta’kidlaydi. Ma’lumki, muvashshahda asosan kishi ismi yoki narsa nomi yashrinadi. Shu bilan birga, unda shoirning ijtimoiy hayot haqidagi qarashlari ham ifoda etiladi. Shoirning zukko olimga (O.Sharafiddinov – U.S) bag‘ishlab yozgan “Ozod akam” muvashshahi yosh shoirning ajoyib iste’dod egasi sifatida maydonga kelayotganligini bildiradi:

*Oh urib har yonda izg‘iydi shamol,
Zamon makon bermay uni qistaydi.
Orzusi faqat shul: u ham tog‘ misol
Dili orom olib yotmoq istaydi.
Asoratda ingrar tog‘lar ham, ammo
Ko‘hi zamonadan topolmay iloj.
Armon qilar u ham: shamolday go‘yo.
Moviy kengliklarda yozsam der quloch. [2.6]*

Tadqiqotchilarning fikricha, muallif bu muvashshah yaratilganda so‘z o‘yini qilgan, mustaqillikdan keyin chop etilgan to‘plamlarda ushbu so‘zlar asl holatiga keltirilgan. [2.378-379]

Abdulla Oripov umri davomidagi tinimsiz ijodiy mehnati bilan xalqimizning chinakam shoiriga, farzandiga aylandi. Shoir o‘z xalqiga kerakli inson ekanligini aslo unutmad. Shu bilan birga musulmon kishisi sifatida islomning eng muhim farzlaridan biri Haj safarini ado etdi. Uning bu ezgu amoli ijodkorga katta kuch, ilhom bag‘ishlaydi va o‘zining “Haj daftari” turkumli kitobini yaratadi. Bu kitobning muqaddimasida shoir “Makkayi mukarramaga borganimning dastlabki kunida Ka’batullohda – Olloh uyi yonida tunni bedor o‘tkazib, tilovat bilan bir qatorda baytlar yoza boshladim. Men bu holatga avvaldan bir muncha tayyor bo‘lganim sabablimi satrlarim o‘z-o‘zidan quyilib kelaverdilar” [8] - deb eslaydi. 1992-yil nashrdan chiqqan ushbu kitobdagi ash‘orlarida muallifning o‘ziga xos fikr-o‘ylari, falsafiy mushohadalari, shuningdek mumtoz adabiyotimiz shoirlarida bo‘lgani kabi islom olamidagi his-kechinmalari aks etgan. Bir qarashda ular da go‘yo o‘tmishda yaratilgan daho asarlarning an’anaviy hamd, na’t, munojot va meroj kechasiga o‘xshash badiiy umumlashmalik aks etgan deyish mumkin:

*Shukrona ayturman o‘zingga, yo rab,
Yuz burdik hidoyat yo‘liga qarab.*

*Haq degan yurtimning baxtini so‘rab
Keldim, madad bergil, yo Ka‘batulloh...
Arshning suluv oti – nurqanot Buroq,
Elti Muhammadni oliy dargohga.
Tasviri joizmas bu holni, biroq
Visol nasib etdi Rasulullohga. [8]*

XULOSA. Abdulla Oripov o‘zbek xalqining farzandi ekanligini faxr-iftixor bilan dilga tuygan shoirlarimizdan edi. Shoir ma‘naviyati, dunyoqarashi uning ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu uning milliy qadriyatlarimizga, mumtoz adabiyotimizga o‘zgacha hurmat, ehtirom ko‘rsatganida, ulug‘ shoirlarimiz ijodi ta‘sirida g‘azallar bitganida namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘p asrlik mumtoz she‘riyatimizning badiiy timsollari olamini, g‘oyaviy-badiiy va janriy xususiyatlarini teran o‘rgandi, his qildi. Ezgulik, muhabbat, insoniylik, sadoqat, komillik kabi umumbashariy mavzularni o‘z asarlarida yangicha talqin qildi. Bu orqali asrlar silsilasida shakllangan badiiy adabiyotimizga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulhakimova O. Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkurida Alisher Navoiy an‘analarining sintezi. “Alisher Navoiy va XXI asr” ilmiy-nazariy anjuman materiallari, - Toshkent, 2021-yil 8-fevral
2. Oripov A. Adolat ko‘zgusi. - Toshkent, “Adolat” 2005.
3. Oripov A. Birinchi muhabbatim. - Toshkent, “O‘zbekiston” 2006.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar to‘rt jildlik 1-jild, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 2000.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar to‘rt jildlik 2-jild, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 2001.
6. Орипов Абдулла. ТА. Тўртинчи жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001.
7. Oripov A. Shoir yuragi. - Toshkent, “Ma‘naviyat” 2003.
8. Орипов Абдулла. Хаж дафтари(ziyouz.com kutubxonasi), -Тошкент: 1992.
9. Ғаниев Илҳом, Афоқова Нодира. Озод руҳ фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2006.